

# PLITONIT

PROFESSIONAL BO'LISH OSON



## PLITONIT UNIVERSAL MH mexanizatsiyalashtirilgan va qo'lda surtish uchun mineral asosli tez qotuvchi o'z-o'zidan tekislanadigan tekislagich GOST 31358 ga mos keladi



Mahsulot quruq va nam yashash (idora) xonalari ichida pollarni QT 29.13330 va MDS 31-1.98 ga muvofiq joylashtirishda, polga keramik plitkalar, to'shama qoplamalar, parketlar yotqizish uchun va "issiq pol" tizimida foydalanish uchun mo'ljallangan. Foydalanish harorati +5 °C dan +70 °C gacha. Qo'lda qo'llash uchun tavsiya etilgan bir marta surtish qatlamining qalinligi - 5 mm dan 100 mm gacha, mashinada surtish uchun - 10 mm dan 100 mm gacha. Pol qoplamisiz bo'yash va ishlatishga ruxsat etilmaydi. To'ldiruvchining maksimal fraksiyasi 1,25 mm.

U turar-joy hamda jamoat binolari va inshootlarini, shu jumladan ta'lim muassasalarini, bolalar, maktabgacha, maktab va tibbiyot muassasalarini (shu jumladan davolash-profilaktika va sanatoriy-kurort) qurish va ta'mirlashda qo'llaniladi.

### Qadoqlash — 20 kg.

- Kuchaytirilgan mustahkamlik M200 7 sutkada
- Kirishishsizlik va yoriqlarga chidamli
- Qatlamli tekislash: qo'lda 5 mm dan 100 mm gacha, mashinada – 10 mm dan 100 mm gacha
- 3 soatdan keyin yurish imkoniyati

### Material sarfi

Qatlam qalinligi 1 mm bo'lganda 1,65-1,7 kg/m<sup>2</sup>.

### Ish olib borish sharoitlari

Eritma aralashmasidan faqat yopiq xonalarda foydalanish kerak. Ishlarni olib borishda va keyingi 3 kun davomida havo haroratini +10°C dan +30°C gacha ushlab turishni ta'minlash kerak. Eritma aralashmasi va asosning harorati ishlarni bajarish jarayonida – +10 °C dan +30 °C gacha bo'lishi kerak. Dastlabki 3 sutka davomida yuza to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari va yelvizaklardan himoya qilinishi kerak.

### Tayyorgarlik ishlari

Asos pishiq (B7,5 beton markasi yoki undan yuqori, siqilishga mustahkamligi 10 MPa dan kam bo'lmagan sementli styajka), konstruktiv-tushiruvchi va yelvizak yoriqlari bo'lmagan bo'lishi kerak. Asos yuzasi chang, ifloslik, ohak, moy, yog', bitum, organik va mineral yelimlar va bo'yoqlar qoldiqlari, shuningdek, suvda eruvchan moddalardan yaxshilab tozalanadi. Asosni changdan uzil-kesil tozalash changyutkich bilan amalga oshiriladi. Dastlabki izolyatsiyalash albatta tekisla-

-nadigan polning qatlamini devor va to'siqlardan maxsus dempfer (tomon) tasmasi bilan qilish kerak. Talab qilinadigan nivelirlash darajasini aniqlash uchun mayoq yoki reperlarni qo'yish kerak. Tekislanadigan yuzaga PLITONIT Grunt SuperPol PROFI grunтовkasi bilan ishlov berish kerak. PLITONITning boshqa praymerlari yoki quruq qoldig'i 8% dan kam bo'lmagan tayyor grunтовkalardan foydalanish mumkin. Grunтовka cho'tka, mo'yqalam yoki valik bilan surkaladi. Grunt yupqa yaxlit qatlam hosil qilishi kerak, ko'lmaklar hosil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Suv shimuvchanligi yuqori bo'lgan yuzalarga grunтовka bilan ikki marta ishlov beriladi. Gruntlangan yuzaning sifati 20-30 daqiqa davomida suvning shimilmasligi bilan belgilanadi. Silliq, zich yuzalar (monolit beton, yopma plitalar va boshqalar) PLITONIT BetonKontakt praymeri bilan ishlov berilishi kerak.

#### **Ajratuvchi qatlam bo'yicha tekislashda (suzuvchi styajka hosil qilish):**

Ajratuvchi qatlamlar (bug'li, tovush o'tkazmaydigan issiqlik izolyatsion qoplama) tekislashga mo'ljallangan butun yuza bo'ylab yoyiladi. Monolit suzuvchi styajka ko'rinishidagi asosli pol va mineral tosh, shishasimon plita yoki matlardan tayyorlangan qistirmalarni loyihalashda tovush o'tkazmaydigan qatlam bo'ylab tutashgan joylari kamida 20 sm bo'lgan yaxlit gidroizolyatsion qatlamni joylashtirish kerak. Tovush izolyatsiyalovchi plitalarning (matlarning) tutashgan joylarida tirqishlar va zazorlar bo'lmasligi kerak. Suzib yuruvchi styajka devor va boshqa konstruksiyalardan kontur bo'ylab eni 1-2 sm keladigan, izolyatsion material yoki buyum bilan to'ldiriladigan tirqishlar bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

#### **Ishlash tartibi**

Qo'lda to'ldirishda bir xalta quruq aralashma (20 kg) ga 4,8-5,2 l suv kerak bo'ladi. Quruq aralashma oldindan o'lchangan xona haroratidagi suvga solinadi va bir xil konsistensiya hosil bo'lguncha (aylanish chastotasi 600 ayl/min dan oshmaydigan) elektromixer yoki elektrodrel yordamida aralashtiriladi. Tayyor eritma aralashmasidan foydalanish vaqti 30 daqiqa.

Ishni kamida ikki kishidan iborat brigada bilan bajarish tavsiya etiladi. Suvning dozasini oshirib yuborishga yo'l qo'yilmaydi. Devorning chiqish joyidan eng uzoqda, taxminan 50 sm kenglikdagi parallel polosalar bilan quyish tavsiya etiladi. Ikki porsiya o'rtasidagi ulanish vaqti 10-15 daqiqadan oshmasligi kerak. Tekislovchi massaning yuza bo'ylab yaxshiroq taqsimlanishi uchun cho'tka yoki reykanadan foydalanish kerak. Ishni bajarish maksimal tezlikni kuzatib, uzilishlarsiz amalga oshirilishi kerak. Agar tekislagich asosdan ajralmagan holda kam uchraydigan mikroyoriqlar hosil bo'lsa, polning funksional yaroqliligi pasaymaydi. Tekislangan yuza bo'ylab yurishga quyilgandan keyin kamida 3 soatdan keyin ruxsat etiladi. Sanuzellar va vannaxonalarda qo'llanilganda PLITONIT HidroElast gidroizolyatsion mastikasi bilan yuzaga ishlov berish kerak. Keramik plitkani pol yuzasini oldindan PLITONIT grunтовkalari bilan grunтовkalab bo'lgandan 3 kundan keyin yotqizish mumkin. Gilam qoplamalari, linoleum, plastik qoplamalar va parketlarni taxminan 7 kundan keyin yotqizish mumkin, bunda asosning namligi pol qoplamasi ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasida ruxsat etilgan kattalik bilan oldindan taqqoslanadi. Ko'rsatilgan xarakteristikalar atrof-muhit harorati 20+2 °C, havoning nisbiy namligi 60+10% bo'lganda haqiqiy hisoblanadi.

## Ehtiyot choralari

Aralash GOST 12.1.007 bo'yicha 4-xavfli sinfga (past xavfli moddalar) tegishli. Ishni bajarayotganda qo'lqop, himoya ko'zoynagi va respirator himoya vositalaridan foydalaning. Aralashmaning teriga va ko'zlarga tegishidan saqlanib. Ko'z bilan aloqa qilganda, darhol ko'p miqdorda suv bilan yuvib tashlang. BOLALARDAN UZOQ SAQLANG.

## Tashish va saqlash shartlari

Aralashmani yuklarni tashish qoidalariga muvofiq yopiq transport vositalarida tashish kerak. Ichida quruq aralashma bo'lgan xaltalar qadoqlash xavfsizligini va namlikdan himoya qilishni ta'minlaydigan yopiq, quruq xonalarda saqlanishi kerak. Ishlab chiqaruvchining tarasida saqlash muddati – ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oy.

## Tarkibi

Gipsli bog'lovchi, mineral to'ldiruvchi, portlandsement, modifikatsiyalovchi qo'shimchalar.

## Ishlab chiqaruvchi kafolati

Ishlab chiqaruvchi iste'molchi tomonidan tashish, saqlash shartlariga va ushbu yo'riqnomaning ko'rsatmalariga rioya qilgan holda aralashmaning GOST 31358 va TU 23.64.10-208-515521552021 talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. Ishlab chiqaruvchi material bilan ishlash texnologiyasiga rioya qilmagan taqdirda, shuningdek uni mazkur yo'riqnomada nazarda tutilmagan maqsadlarda va shartlarda qo'llaganlik uchun javobgar bo'lmaydi. GOST 8.579-2001 ga muvofiq netto massasidan og'ish. Mahsulotdan fuqarolik qurilishining barcha turlarida foydalanishga ruxsat etilgan (Aeff <370 Bk/kg; Sanitariya qoidalari va normalari 2.6.1.25.23-09 "Radiatsiyaviy xavfsizlik me'yorlari (NRB 99/2009) " bo'yicha I sinf materiallar.

## Texnik xarakteristikalar

<b>Quruq holatdagi aralashma uchun</b>	
Qatlam qalinligi 1 mm bo'lganda material sarfi	1,65-1,7 kg/m <sup>2</sup>
To'ldirgich donalarining eng katta yirikligi	1,25 mm
Eng katta yiriklikdagi donlar miqdori	0%
Qotirish uchun suv sarfi	4,8-5,2 l
<b>Qo'llanishga tayyor aralashma uchun</b>	
Harakatchanlik (halqaning siljishi)	260 mm dan kam bo'lmagan
Qo'llashga tayyor bo'lgan aralashmadan foydalanish vaqti	30 daqiqadan ko'p bo'lmagan
<b>Qotib qolgan eritma uchun</b>	
Normal sharoitlarda yoshda siqilishdagi mustahkamlik <ul style="list-style-type: none"><li>• 3 soat</li><li>• 7 sutka</li></ul>	kamida 6 MPa kamida 20 MPa
Asos bilan birikish mustahkamligi 7 sutkadan keyin	0,8 MPa dan kam bo'lmagan
Kirishish deformatsiyalari, ko'pi bilan	0,7 mm/m
Kengayish deformatsiyasi, ko'pi bilan	0,5 mm/m
Foydalanish jarayonida harorat rejimi	+70°C gacha
Tabiiy radionuklidlarning solishtirma effektiv faolligi	370 Bk/kg dan ko'p bo'lmagan

## Logistik ma'lumotlar

Individual shtrix-kod 4607013046351

Paletdagi xaltalar soni – 48 dona